

**L.A.ZIMINING BUXORO VOHASIDA OLIB BORGAN ILK ARXEOLOGIK
IZLANISHLARI NATIJALARI XUSUSIDA**

Jamol Yuldashev

Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga
o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Keywords: arxeologiya, razvedka, Poykant, Afrosiyob, Shahriston, ark, obida, ekspedesiya, telegrafist, kolleksiya, Varaxsha

Annotation

Ushbu maqolada L.A.Ziminning XX asrning 10-20-yillarida Buxoro va Poykandda olib borgan arxeologik izlanishlari va ularning natijalari haqidagi ma'lumotlar berilgan. L.A.Ziminning Buxoro arxeologiyasini ilmiy tahlil qilishdagi alohida xizmatlari o'rganildi hamda uning O'zbekiston tarixida tutgan o'rni va ahamiyati ochib berdi

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

INTRODUCTION

Аннотация

В этой статье даны сведения об археологических изысканиях Л.А.Зими́на в Бухаре и Пойканде в 10-20-е годы XX века и их результатах. Были изучены отдельные заслуги Л.А.Зими́на в научном анализе Бухарской археологии, а также раскрыты его роль и значение в истории Узбекистана. **Ключевые слова:** археология, разведка, Пойканд, Афросиаб, Шахристан, ковчег, обиды, экспедиция, телеграфист, коллекция, варахша

Annotation

This article provides information about L.A.Zimin's archaeological research in Bukhara and Poykand in the 10-20-ies of the XX century and their results. The individual merits of L.A.Zimin in the scientific analysis of Bukhara archeology were studied, as well as his role and significance in the history of Uzbekistan were revealed.

Keywords: archeology, exploration, Paykan, Afrosiab, Shahristan, ark, offense, expedition, telegraphist, collection, Varakhsha

Dunyo xalqlari tarixi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini o'rganishda yozma manbalar, etnografik ma'lumotlardan tashqari arxeologik qidiruv, qazuv tadqiqotlarining ahamiyati beqiyosdir. Shu kundagi jahon tarixi fanidan ko'plab munozarali, mavhum ilmiy masala va muammolarni hal qilishda arxeologik izlanishlar yuqori samara bermoqda va shu bois, arxeologiyani fan sifatida yanada rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlashga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida barcha fan sohalari qatori ijtimoiy yo'nalishdagi ilm turlariga, jumladan, arxeologiya tarixshunosligiga, Turkistonda shakllanishi va taraqqiyot bosqichlariga, uning dastlabki namoyondalari, tajribali mutaxassislarining biografiyasi va ilmiy merosiga oid mavzularda izlanishlar olib borish ishlari yo'lga qo'yildi. Shu ma'noda «Turkiston sheri», deb nom olgan

L.A.Ziminning biografiyasi, Buxoro vohasida olib borgan dastlabki tadqiqotlari haqida ushbu maqolada ma'lumotlar berishni joiz, deb topdik.

Ma'lumki, 1895-yilda «Turkiston Arxeologiyasi havaskorlari to'garagi» tashkil topgandan so'ng, oradan biroz muddat o'tib, ya'ni XX asrning boshidan o'lkada arxeologiya qazuv-tadqiqot ishlari jonlana boshladi. Asosiy ishlar Toshkent vohasi arxeologiya yodgorliklarida, Samarqandning qadimiy o'rni Afrosiyobda o'tkazilib, bu tadqiqotlarga N.I.Veselovskiy, V.L.Vyatkin, V.V.Bartold kabi o'z davrining yetuk mutaxassislari rahbarlik qilishdi. Bu davrda O'rta Osiyo arxeologiyasi bo'yicha yetarli darajada qadimgi moddiy madaniyat namunalari yig'ilgan bo'lsada, uni davrlashtirish, «xronologik shkala»larini yaratish ishida katta muammolar mavjud edi. Topilayotgan va qayd etilayotgan qadimgi moddiy madaniyat namunalari davriy sanasini aniqlash, ularning «klassifikatsiyasi»ning tuzish ishlarida ijobiy o'zgarishlar yo'q edi. Yodgorliklarni va ulardan chiqqan topilmalarni davrlashtirish taxminiy asosda, sodda usulda keng davriy sanalar bilan aniqlanar edi. Xususan, «musulmonlikka» (домусульманский), «tug'ullargacha» (домонголский), «temuriylar» davriga oid (тимуридский) kabi atamalar bilan topilmalar va yodgorliklarning tarixiy sanasi belgilangan. O'tkazilayotgan arxeologik-qazuv tadqiqotlarning ilmiy natijalarini o'lkaning qadimiy tarixini o'rganishga, uni to'ldirishga yo'naltirish maxsus muammo sifatida qo'yilmagan. Zero, ular arxeologik-qazuv ishlarida tarixiy yozma manbalar ma'lumotlaridan foydalangan bo'lsalarda, bunga katta ahamiyat berishmagan. [1, 53-bet]

Shuningdek, O'rta Osiyo arxeologiya yodgorliklarni qazish metodikasi ham to'la-to'kis ishlab chiqilmagan bo'lib, buning asosiy sababi o'lka arxeologiya yodgorliklarning o'ziga xosligi, qadimgi me'moriy inshootlar asosan paxsa va xom g'ishtdan qurilgan edi. Vaholanki, bu paytda Rossiya imperiyasining boshqa o'lkalarida, xususan, qadimgi me'moriy inshootlar asosan toshdan va pishgan g'ishtdan qurilgan.

Buxoro vohasi arxeologiya yodgorliklarida haqiqiy ma'nodagi qazuv- tadqiqotlarini boshlanishi sharqshunos – tarixchi mutaxassisligiga ega bo'lgan L.A.Zimin nomi bilan bog'liqdir. Lev Aleksandrovich Zimin 1986-yil Oryol shahrida texnolog muhandis oilasida tug'ilgan. L.A.Zimin 1904-1909-yillarda Sank-Peterburg universitetining Sharq tillari fakultetini tamomlaydi, talabalik davrida akademik V.V.Bartoldning eng qobiliyatli shogirdlaridan biri bo'lgan. L.A.Zimin turkolog, arabshunos, eronshunos mutaxassisligiga ega edi. O'qishni tamomlagach, Toshkentda sartov mutaxassisligi tilidan dars bergan, keyinchalik Marvda o'quv yurtini boshqargan.

1917-1920-yillarda AKP ning o'ng qanoti azosi bo'ladi, 1919-yil boshida mintaqada eng hurmatli kishilardan biri sifatida mahalliy aholining iltimosiga va xohishiga ko'ra bir ovozdan deputat etib saylanadi. Sotsialistik inqilobiy Transkasbiy muvaqqat hukumatining tashqi ishlar bo'yicha komissari (tashqi ishlar bo'limi boshlig'i) lavozimini egallaydi. U siyosiy muxoliflarga nisbatan o'lim jazosini qo'llashning prinsipal muxolifi sifatida tanilgan va ko'plab qon to'kilish holatlarining oldini olgan. Shu sababli 26 nafar Boku komissarlarining qatl etilishi undan yashiringan edi, bu haqda u haqiqatdan keyin bilib oldi, ammo shunga qaramay, ularning xotinlari va bolalarini repressiyalardan qutqarishga muvaffaq bo'ladi. 1919-yil 14-mart sanasida Turkmaniston Jamoat xavfsizligi qo'mitasidan iste'foga chiqadi. 1919-yil noyabridan Boku davlat universitetining Sharq fakulteti arab tili kafedrasi dosenti bo'ldi, u arab antologiyasi va lug'atini nashr ettirib, undan universitetda dars o'tishda foydalanilgan. Boku qo'lga kiritilgach, 1920-yil 3-mayda hibsga olinib, bir hafta o'tgach, 11-armiya inqilobiy harbiy kengashining maxsus bo'limi tomonidan harbiy xizmatga hukm qilindi va shu kuni qatl etildi. [2]

Turkiston arxeologiyasi havaskorlari to'garagi azosi bo'lgan L.A.Zimin ushbu tashkilotning maxsus topshirig'iga binoan 1913-1915-yillarda avvalo vohada bir qancha arxeologik «razvedka» - qidiruv ishlarini amalga oshiradi. Mazkur ishlarga kirishishdan avval va tadqiqotlar boshlangandan so'ng ham L.A.Zimin tashkiliy ishlar xususida, ilmiy masalalar borasida o'sha paytdagi mashhur sharqshunos, Rossiya Fanlar Akademiyasi sharqshunoslik kollegiyasi doimiy raisi, turkshunoslik qo'mitasining rahbari V.V.Bartolddan maslahatlar so'rab u bilan yozishmalar olib borgan. [3] Bu esa L.A.Ziminni tadqiqotlarga jiddiy kirishganidan dalolat beradi. Yozishmalar o'z natijasini beradi. V.V.Bartold O'rta va Sharqiy Osiyoni o'rganish qo'mitasidan L.A.Ziminga Poykent va Shoxruxiyaga borish uchun 500 rubl pul ajratadi 1913-yil 9-aprelda u xotini bilan yo'lga chiqadi.

Arxeologik qidiruv ishlari natijasida L.A.Zimin Buxoro vohasida bir qancha shahar va qishloq xarobalarini, N.F.Sitnyakovskiy tomonidan qayd etilgan Qiziltepa va Xazara oralig'idagi Kanpirak devorni, Poykend, Romiton va Varaxsha yodgorliklarini tadqiq qiladi, planga tushiradi. Tavsifini yozadi va qaytadan fotosuratga tushiradi. U 1914-yilning bahor va yoz oylarida Sharqiy va O'rta Osiyoni o'rganish bo'yicha Rus qo'mitasi topshirig'iga asosan Poykentda qazuv ishlarini o'tkazadi.

Uning Buxoroga ilk 1913-yil 9-oktyabrda borib kelishi Kushbegi Mirzo Nasrullobiy qushbegining arxiv xonasida topilgan hujjatda quyidagicha qayd qilinadi: Shu yilning bahorida Poykent shahar vayronalarida tadqiqot ishlari olib borish uchun kelgan Turkiston arxeologiyasi havaskorlari klubi a'zosi L.A.Zimin uni kuzatib borgan Abdulhamidbek jivachining amaldorlarini, ishchi va otlar bilan ta'minlagan Yakkatut qishlog'i noibi mullo Mirzo Ikromni, safar muvaffaqiyatli o'tganligi munosabati bilan Turkiston xavaskor arxeologlar klubida qilgan ma'ruzasida general-gubernatordan yuqorida aytib o'tilgan amaldorlarni mukofotlash, ularning xizmat joyi va jamoalariga bildirishni iltimos qilib so'raydi. [4] Yoki boshqa bir hujjatda: 1914-yil 26-avgustida Qushbegi Mirzo Nasrullobiy shuni ma'lum qiladiki, iyun oyida L.A.Zimin xotini bilan Poykentda ishlaganida, unga arxeologik-qazuv ishlar olib borish uchun Mir Usmon chehra, jondor qozisi bergan amaldor Abdulxalil va Mullo Rajab yaqindan yordam berganliklari, lekin pul mukofotini olmaganliklari uchun, Qushbegidan ularni mehnatlariga loyiq qanday mukofot joyz ekanligini so'raydi. [5]

L.A.Ziminning Buxoroga kelishi arxeologik qazuvlar o'tkazishi va unga Qushbegi tomonidan har tomonlama yordam ko'rsatilishiga qaraganda Buxoro amiri ham ehtimol bu ishlardan voqif bo'lgan. Chunki o'z-o'zidan ma'lumki, Qushbegi davlat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalarni faqatgina amirning ruxsati bilan bajargan. Shunga qaraganda, xulosa qilish mumkinki, fors tilini yaxshi bilgan L.A.Zimin Buxoro amiri bilan muloqotda bo'lganligi ham ehtimoldan xoli emas.

Demak, taqirlash joizki, Buxoro vohasida maqsadli ravishda, rasmiy tashkilotlarning moliyaviy ko'magi va ko'rsatmasi asosida, amirlikning roziligi va tashkiliy ishlardagi yordami tufayli dastlabki arxeologik-qazishlar XX asrning 10-yillarida L.A.Zimin tomonidan Poykentda boshlangan. Darvoqiy, haqiqatdan ham Poykentda 1913-yilning aprel oyida L.A.Zimin o'zining ilk tadqiqotlarini boshlaydi. Dastlab u Poykent xarobalari joylashuvini qiyosiy chamalab planga tushiradi. Shahriston va arkning o'sha davrda saqlanib qolgan mudofaa devorlarining ancha to'liq holatdagi tavsif bayonini yozadi. Ayniqsa, tadqiqotchi tomonidan Poykentning o'sha davrlargacha saqlanib qolgan alohida qismlari va devorlarining fotosuratga olinishi ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, Poykent shahri fortifikatsiyasini uning alohida xususiyatlarini belgilovchi, ba'zi detallar, xususan mudofaa devorlarining yuqori qismlarida mavjud bo'lgan kamon o'qlari otildigan shinaklar bu davrda XX asr boshlarida saqlanib qolgan va ular fotosuratlarda qayd etilgan. Keyinchalik, 1939-1940-yillarda Poykentni o'rgangan A.Yu.Yakubovskiy bu shinaklarni buzilib ketganini qayd etadi.[6]

1914-yilda L.A.Zimin Poykentga ikki marta mavsumiy ekspedisiya (bahorgi, kuzga) uyushtiradi va shahar xarobalarining turli joylarida bir necha stratigrafik shurf qazishga muvaffaq bo'ladi. Asosiy qazuv ishlari shahar xarobasining markazida 22x20,5 m o'lchamli hududda o'tkaziladi. Qazib ochilgan ushbu mavzeda bir necha imorat qoldiqlari qayd etiladi. L.A.Zimin dastlab bu imorat qoldiqlarini yagona qurilish inshooti, ehtimol qamoqxona, deb taxmin qiladi. Keyinchalik bu fikridan qaytib qazish ishlari natijasida bir nechta bir-biriga tutashib ketgan, nihoyatda zich joylashgan imoratlar qoldiqlari ochilganini etirof etadi. Uning fikricha, bu imoratlar oddiy shaxarliklarning xususiy yashash uylari bo'lgan. [7]

1914-yilning kuzida uchinchi marotaba Poykentga ekspedisiya uyushtirgan L.A.Zimin Shahristonni ikki qismga - ichki va tashqi Shahristonga ajratuvchi devorni qayd etadi va ochib o'rganadi. O'tkazilgan ushbu ishlar bo'yicha nashr qilingan ilmiy hisobotda qazib ochilgan uchastkalarining plani, mudofaa devorlarining umumiy ko'rinishi, topilma va tadqiqot o'tkazilgan joylarning fotosurati mukammal berilgan.

XX asrning boshlarida hali saqlanib qolgan shaharning qismlarini L.A.Zimin tomonidan qilingan fotosuratlar natijasida tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. [8] Keyingi avlod arxeologlari uchun uning hisoboti, unga ilova qilingan fotosuratlar shaharsozlik madaniyatini o'rganishda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Arxeolog G.L.Semenovning yozishicha, 1913-yilda L.A.Zimin tomonidan sur'atga

olingan Poykent shahri Ark devorlarining yuqori qismi va undagi kamonbozlar shinaklarini oradan malum vaqt o'tib yemirilib ketganligi sababli A.Yu.Yakubovskiy rahbarligidagi ekspedisiya xodimlari V.A.Shishkin va M.M. Dyakonovlar topa olmaganlar. [9] Shu manoda, L.A.Zimin tomonidan qilingan fotosuratlarining ahamiyati bebahodir.

Sharq tillarini yaxshi bilgan L.A.Zimin o'z hisobotini yozish jarayonida asosan o'rta asr tarixchi va geograflari Ibn Xavkal, Istaxriy, Abu Zayd al-Balxiy, Muhammad Narshaxiy, Ahmad Quboviy va boshqalarning asarlarini sinchiklab o'rgangan. Buxoro, Poykent, Varaxsha haqidagi ma'lumotlarni yig'gan va ularni o'z o'rnida ishlatgan. Ungacha Poykent to'g'risida, qolaversa Buxoro vohasi bo'yicha ma'lumotlarni faqat shu yozma manbalardan olish mumkin edi. Undan tashqari L.A.Ziminga telegrafist I.N.Odinov o'zining bir necha yil davomida Poykent shahar vayronalaridan yiqqan tangalar kolleksiyasini aniqlash uchun taqdim qilingan. L.A.Zimin Buxoro vohasida 1913-1915-yillar mobaynida o'tkazgan ilmiy tadqiqotlarini ikki xil-arxeologik qazuv va arxeologik qidiruv yo'nalishi bo'yicha olib borgan. 1915-yilda o'tkazilgan ishlar bo'yicha tuzilgan ilmiy hisobotida u Varaxsha shahar xarobasi va uning geografik joylashuvi haqida fikr bildiradi. Uning yozishicha, «Varaxsha tepaligi Buxorodan Xivaga olib boradigan yo'l yoqasida, arab geograflari taqidlaganlaridek, (Buxorodan) 4 farsax yoki 1 kunlik yo'l masofasi uzokligida joylashgan». Shuningdek, L.A.Zimin Varaxsha xarobalari katta hududni tashkil etishini, mahalliy aholi bu xarobalar ustidan tez-tez tanga-chaqa pullar topishlarini malum qiladi [10].

Umuman olganda, o'sha davr shart-sharoiti, ekspedisiyaning moliyaviy taminoti, tashkiliy ishlar sifati va ayniqsa ilmiylik nuqtai-nazardan xulosa qiladigan bo'lsak L.A.Zimin ishlarini qoniqarli, deb baholash mumkin. Chunki u o'z imkoniyatlaridan maksimal holda foydalangan va Buxoro vohasida ilk bor stasionar holatda arxeologik qazuv ishlarini o'tkazishga harakat qilgan. Qazuv tadqiqotlari jarayonida, ayniqsa ilmiy hisobotlarni yozish davrida u chin dildan, vijdonan ishlagan, mukammal darajadagi arxeologik ishni amalga oshirishga harakat qilgan. Shunga qaramasdan, L.A.Zimin o'tkazgan arxeologik qazuv va qidiruv ishlarida, yozgan ilmiy xisobotlarida kamchiliklar hamda etirozli o'rinlar etarlicha edi. Bunga sabab tadqiqotchida arxeologik qazuv ishlarini olib borishi uchun tajriba nihoyatda kam bo'lgan. Bundan tashqari O'rta Osiyo arxeologiyasiga xos bo'lgan loy-tuproq (paxsa, xom g'isht) memorchiligi qoldiqlarini topish va ularni to'g'ri talqin qilish o'sha davr arxeologiyasining eng murakkab namunalaridan biri edi. L.A.Zimin Poykentda o'tkazgan arxeologik qazuv ishlari bo'yicha V.A.Shishkin quyidagicha xolisona baho bergan: «L.A.Zimin tomonidan Poykent shahristonida ochilgan imoratlar shaharliklarning turar joylari edi. Maxsus malaka va tajribaga ega bo'lmagan Zimin tomonidan olib borilgan ushbu dala qazuv ishlari va tuzilgan ilmiy hisobotlarda bir qator jiddiy kamchiliklar mavjud. Hisobot diqqat bilan o'qilib tahlil qilinsa, tadqiqotchini bir emas bir necha qurilish davrlariga taalluqli madaniy qatlamlarni ochganini, lekin ularni etarli darajada tahlil va talqin qila olmaganini payqash mumkin.

Hisobotga ilova qilingan qazib ochilgan hudud plani xam etarli darajada aniqlik bilan chizilmagan.[3].

Haqiqatan ham qazib ochilgan mavzedagi imoratlarining ba'zi xususiyatlari L.A.Zimin tomonidan to'liq tahlil qilinmagan. Masalan, qazilgan hududning janubiy qismidagi imoratlar plani ancha mavhum va tushunarsiz holda chizilgan. Shimoliy qismidagi imoratlar nisbatan yaxshi ochilgan va plani ham tushunarli chizilgan. Binolarning devorlari 25,6x20x4,5 sm qalinlikdagi xom va pishgan g'ishtlardan, bazi holatlarda paxsadan ko'tarilgan. Bu erda ancha katta hajmdagi yashash imorati ochilgan bo'lib, imorat bir qancha xonalardan iborat bo'lgan. Xonalar bir-biri bilan eshiklar orqali bog'langan. Shunga qaramasdan, L.A.Zimin planining shimoliy qismida ham bazi noaniqliklar uchraydi. Xususan, ba'zi xonalarning eshiklari planda qayd etilmagan. Imoratni ko'cha bilan bog'lovchi markaziy eshik o'rni ham aniq emas. Vohalanki, bu haqida hisobot matnida fikr bildirilgan. Qazib ochilgan ba'zi qurilish namunalari, ularning funksiyasi haqida ham chalkash fikrlar bildirilgan. Masalan, xonalarning aksariyat barchasida «quduqsimon chuqur»lar qayd etilgan. L.A.Zimin ularni «Turkistonning mahalliy aholisi tomonidan hozir ham ishlatiladigan tandir» deb talqin qiladi. [3] Zero, bu qurilmalarning barchasi, ayniqsa qishloq joylarida hozir ham keng faoliyatda bo'lgan tashnov – obrez edi.

L.A.Zimin Buxoro vohasi arxeologiya yodgorliklarini geografik joylashuvi haqida bildirgan ba'zi fikrlarida ham noaniqliqlar, chalkashliklar mavjud. Bu haqida keyinchalik Buxoro vohasida keng

miqyosda arxeologik tadqiqotlar o'tkazgan V.A.Shishkin quyidagicha yozadi. «1915-yilgi safar hisobotida L.A.Zimin Varaxsha shahar xarobalarining qayerda joylashganligi haqida fikr bildiradi. L.A.Zimin vohaning chekka qismida joylashgan bir qancha shahar xarobalarini ko'zdan kechirgan bo'lsada, Varaxshaning o'zida bo'lmagan. Shu sababli, yodgorliklarning tavsiflashda L.A.Zimin ba'zi chalkashlarga yuzakilikka, hatto qo'pol xatolarga yo'l qo'ygan. Masalan, amalda Varaxsha xarobalari orqasida joylashgan Kampirak devorni L.A.Zimin Romiton yaqinidagi boshqa bir tepalik bilan bog'laydi. Yoki Qal'ay Mallabek devor qoldiqlarini joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar ham xaqiqatga to'g'ri kelmaydi.[9]

Shunday qilib, L.A. Zimin olib borgan arxeologik tadqiqotlar Buxoro amirligi tugatilguncha qadar o'tkazilgan ushbu xildagi tadqiqotlarning o'sha davr uchun eng mukammali va shu bilan birga eng so'nggisi edi. L.A. Zimin tomonidan Poykentda o'tkazilgan qazuv ishlari o'z xususiyatiga ko'ra, dastlabki tekshiruv ishlari bo'lib, nisbatan qisqa muddat va kichik hajmda o'tkazilgan qazuv ishlari natijasida yodgorlikning faqat yuqori qurilish qatlamlari - somoniylar va qoraxoniylar davriga oid me'moriy inshootlar qoldiqlari, moddiy madaniyat namunalari o'rganilgan. Shunga qaramasdan, Poykentdan L.A. Zimin tomonidan olingan arxeologik manbalar O'rta Osiyo tarixiga bag'ishlangan bir qancha kitoblarda o'z aksini topdi. [10.]

Shunday ekan, L.A. Zimin Buxoro vohasi arxeologiya yodgorliklarini o'rganilishi tarixida munosib o'rni borligini alohida e'tirof etish lozim. Voha arxeologiya yodgorliklarini rejali asosda ilmiy o'rganishning asoschilaridan biri bo'lganligini tan olmoq joiz. L.A. Zimin tadqiqotlaridagi yuqorida ta'kidlangan, kamchiliklar va e'tirozli o'rinlarga qaramasdan Buxoro arxeologiyasini o'rganishdagi bir qator ijobiy yangiliklar va o'zgarishlar uning nomi bilan bog'liqdir. Bular quyidagilardir:

1. L.A. Zimin tashabbusi va sayi-harakatlari tufayli «Turkiston arxeologiyasi havaskorlar to'garagi»ning maxsus yo'llanmasi va moliyaviy ta'minoti bo'yicha ilk marotaba Buxoro vohasida rejali asosda arxeologik qazuv va qidiruv ishlari o'tkaziladi. Bu Buxoro arxeologiyasini o'rganishda yangi bosqichning boshlanishi edi.

2. Uning faoliyati tufayli mazkur tadqiqotlarni o'tkazish uchun Buxoro amirligining ham hayrixoxligi va tashkiliy ishlardagi yordamiga erishiladi.

3. 1913-1914- yillarda o'tkazilgan arxeologik qazuv-qidiruv ishlari natijalari asosida Buxoroning qadimiy tarixi va moddiy madaniyati ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi.

4. L.A. Zimin Buxoro arxeologiyasini o'rganishdagi alohida xizmatlari shundan iborat bo'ldiki, u o'zidan avvalgi tadqiqotchilardan farqli o'laroq bir yodgorlikda bir necha mavsum izlanishlar olib bordi. Yodgorlik va topilmalarni ilmiy jihatdan tahlil qildi.

5. Yozilgan ilmiy hisobotlar, olingan fotosuratlar, tuzilgan xaritalar, yodgorliklarning tavsifnomalari keyingi davr tadqiqotchilari uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qildi.

L.A. Zimin keyingi taqdiri fojiali kechdi. 1919-yili Ashxobod va Boku inglizlar tomonidan egallanganidan keyin, u o'z xohishiga qarshi «Kavkazorti hukumati» tarkibiga kiritilib, tashqi ishlar vaziri etib tayinlanadi. Bokuni Qizil Armiya egallaganidan so'ng, inglizlar bilan Angliyaga qochishni istamaydi.

«1920-yil 10-may kuni «26 nafar Bokulik komissarlar»ning otilishida, inglizlarning xufyasi sifatida va Sovet hukumatini sotganlikda», ayblanib bolsheviklar tomonidan otib tashlanadi. Haqiqatda esa L.A. Zimin komissarlarning otilishiga mutlaqo qarshi bo'lgan. Buni bilgan «Kavkazorti hukumati» xatto uni xabardor qilmasdan turib, bu ishga tayyorgarlik ko'rgan edi. O'lishidan so'ng, uning ko'plab qo'lyozmalari, tugallanmagan ishlari yo'qolib ketadi. Do'stlari tomonidan «Turkiston sheri», deb nom olgan L.A. Zimin nomi uzoq vaqt yodga olinadi.

ADABIYOTLAR

1. Труды отдела истории культуры и искусства Востока. Т.2. Ленинград. 1940, С.53.
2. Центральный государственный архив Республики Узбекистана Политагенство в Бухаре. 9.10.1932. Мирзо Насрулло бий-кул-ли Кушбеги и-126, ои – 2 е.х. 941, Л.4.

3. Мухамеджанов А.Р., Адылов Ш.Т., Мирзаахмедов Д.К., Семенов Г.Л. Городище Пайкент. Т., «Фан», 1988.
4. Зимин Л.А. Развалины старого Пайкенда ПТЛКА. Т., 1913.
5. Семенов Г.Л. Согдийская фортификация V-VIII веков. Санкт-Петербург, 1996.
6. Зимин Л.А. Отчёт о двух поездках по Бухаре с археологической целью – ПТКЛА, вып. 2, 1917.
7. Шишкин В.А.. Варахша. М., 1963.
8. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973.
9. Нильсен В.А. Архитектура Средней Азии V-VIII вв. Т., 1966.
10. Негматов Н.Н.. Государство Саманидов. Душанбе, 1977.